

**O'ZBEK TILIDA KO'MAKCHILAR TIZIMI VA ULARNI
LEKSIKOGRAFIK JIHATDAN O'RGANISH OMILLARI**

20-maktab ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

Sattorqulova Shalola To'ychi qizi

shalolasattorqulova995@gmail.com

+998933210495

Annotatsiya: maqolamizda shularni yoritishimiz mumkinki, o'zbek tilidagi ko'makchilarning ilmiy xususiyatlari, kelishiklar bilan sinonimlik (ma'nodoshlik) xususiyatlarini o'rganadi, hamda tahlili haqida so'z boradi. Maqolada o'zbek va dunyo tilshunosligida ko'makchilarning o'rganilishiga oid qarashlar, ko'makchilashish, metaforik ma'no ko'chishi kabi hodisalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, ma'nodoshlik, ko'makchilar, qo'shimcha ko'makchilar, sof va vazifadosh ko'makchilar, morfema, yordamchi so'zlar kategoriyasi.

Ma'lumki, tilshunoslikda so'zlarni turkumlarga ajratishda morfologik, sintaktik va mazmuniy belgilar birgalikda olinadi. Ko'makchilar ham shu uch belgi asosida turkumlangan. Ko'makchilar morfologik jihatdan mustaqil paradigmaga ega emasligi, sintaktik jihatdan gapning mustaqil bo'lagi bo'la olmasligi, mazmuniy jihatdan vosita, maqsad, sabab, vaqt va shu kabi boshqa munosabatlar anglatilishligi bilan boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi. Ko'makchilar tarixan mustaqil so'zlar bo'lgan bo'lsa ham, ular hozirgi zamon o'zbek tilida leksik ma'nolarini yo'qotgan, lekin grammatik ma'nosi bor so'zlar. Shuning uchun ham mustaqil so'zlar bilan birgalikda ishlatiladi. Ko'makchilar obyektlar o'rtasidagi makon, vaqt, sabab, maqsad, egalik, chegaralash kabi munosabatlarni ifodalaydi yoki obyektlarning harakatga, holatga, sifatga yuqoridagicha munosabatlarini bildiradi. Ko'makchilarning xususiy ma'nolari biror kelishik formasidagi shaxs yoki predmet bilan qo'shilgandagina yuzaga keladi. Shuning uchun ham A.A.Shaxmatov ko'makchilar kelishik formalari anglatgan ma'noni

mustahkamlaydi, to'ldiradi, kuchaytiradi, - deydi

Ko'makchilar vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon va shu kabi boshqa munosabatlar bildirish uchun qo'llanadigan so'z turkumidir. Ko'makchilar tarixan mustaqil so'zlar bo'lgan bo'lsa ham ular hozirgi zamon o'zbek tilida leksik (material) ma'nolarini yo'qotgan, grammatik ma'nosigina bor so'zlardir. Shuning uchun ular hozirgi zamon o'zbek tilida faqat boshqa so'zlar bilan birga ishlatiladi. Ko'makchilar o'zgarmaydi (turlanmaydi va yasalmaydi), kelishiklarni boshqaradi. Masalan, shuning uchun (qaratqich kelishigi), uyga tomon (jo'nalish kelishigi). Hozirgi zamon o'zbek tilida ko'makchilarning ikki xili uchraydi. Bular: bilan, uchun, kabi, sari, sayin, qadar, singari mustaqil ma'nosini tamoman yo'qotgan so'zlar va tomon, boshqa, sababli, orqali, tufayli, qarab, qaramay, so'ng, tashqari, beri, ko'ra, chog'li, uzra singari ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi, mustaqil so'zlardan (ot, sifat, ravish va fe'llardan) ko'makchilikka ko'chgan so'zlardir. Boshqa turkiy tillarda va shuningdek, o'zbek tilida ham ko'makchilar semantik jihatdan biror (bosh, jo'nalish va chiqish) kelishikdagi so'z bilan aloqador bo'lgani va bu ko'makchili birikmaning ma'nosi turli sintaktik munosabatlarni ifodalash bo'lgani uchun ko'makchilarning qaysi kelishikni boshqarib kelishi, ya'ni sintaktik tomoni hisobga olinishi kerak. Sintaktik tomondan ko'makchilar quyidagi guruhlariga bo'linadi: 1) bosh kelishikdagi ot va qaratqich kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar; 2) jo'nalish kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar; 3) chiqish kelishigidagi so'zlarni boshqaradigan ko'makchilar. Vosita, sabab, maqsad, qiyos-o'xshatish munosabatlari ifodalash uchun qo'llaniladigan bilan, uchun, kabi, chog'li, qadar, sayin, bo'yicha, orqali, sababli.

Ko'makchilar bir mustaqil so'zni ikkinchi mustaqil so'zga tobelashtirib bog'laganligi uchun kelishik qo'shimchalari bilan bir xil vazifa bajaradi, shuning uchun sof ko'makchilarni ko'p hollarda kelishik qo'shimchalari bilan almashtirish mumkin bo'ladi. Masalan, Bolalar bog'chasiga hadya qildim. Bolalar bog'chasi uchun hadya qildim. Mehnatsevarligidan xalq o'rtasida obro'-e'tibor topdi. Mehnatsevarligi uchun xalq o'rtasida obro'-e'tibor topdi. Dalaga ketdi — dala tomon ketdi. Kelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilar o'rtasida mazmuniy

umumiylik bo'lsagina biri o'rnida ikkinchisi kela oladi. Birinchi gapda har ikkisida atash ma'nosi, ikkinchi gapda sabab ma'nosi, uchinchisida yo'nalish ma'nosi mavjud. Ana shu umumiy ma'no ularning o'zaro almashinuviga imkon beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur umumiy ma'noni qanday ifodalashda kelishik bilan ko'makchi ma'lum darajada bir-biridan farqlanadi. Kelishik qo'shimchasi orqali ifodalangan ma'no aniq, ko'makchi orqali ifodalangan ma'no esa umumiyroq, noaniqroq bo'ladi. Ayniqsa bu farq yo'nalish ma'nosini bildirishda aniq seziladi. Solishtiring: Samarqandga ketdi — Samarqand tomon(ga) ketdi. 2 Bosh kelishikdagi so'z (ba'zan qaratqich kelishigidagi olmosh) bilan keladigan ko'makchilar Bilan. Bu ko'makchi o'zi birga kelgan so'z bilan birlikda quyidagi ma'nolarni bildiradi: 1. Birgalik, hamkorlik ma'nosini ifodalaydi: Ya'ni Bu ko'chmakchi birga, birlikda, birgalikda, birlashib, birgalashib so'zlari bilan kelganda birgalik, hamkorlik ma'nosi yana kuchayadi: Asqar oga zavq qilib kuldi, — Sen hali dengizni ko'rganing yo'q, qizim Xudo xohlasa kuyoving bilan birga ko'rasan (A. Qahhor). U, ssh kolxozchi, o'z tengqurlari bilan birga.

Yordamchi so'zlar, ayniqsa, ko'makchi so'zlarni tahlilga tortar ekanmiz, biz avvalo, "so'z" atamasiga diqqatimizni qaratamiz. Bir guruh olimlar ko'makchilarning so'z ekanini tan olmasligini, lekin bu xato fikr ekanligini asoslab beradi. "Yordamchi so'zlar" deb ishlatishimizni, lekin ularning so'z sifatida tan olmasligimizni; ko'makchi so'zlar ham mustaqil so'z turkumlaridan kelib chiqqanligini rad etmasdan, ularning so'z ekanligini rad etishimizni aytib o'tadilar. Lekin ko'makchilarning so'z ekaniga shubha qiladilar. Vaholanki, otko'makchilar, sifat-ko'makchilar, ravish-ko'makchilar, fe'l-ko'makchilar deyilgan atama har qanday ko'makchini qaysi so'z turkumlariga taalluqli ekanini qayd etishdir. Bu holatni professor A.B.Pardayev quyidagicha izohlaydi: "Nafaqat ko'makchilarni, balki boshqa yordamchi so'zlarni ham so'z deb hisoblamaslik "so'z" atamasini "leksema" tushunchasi bilan almashtirishdan kelib chiqqan...". Shu o'rinda lug'atlarga murojaat qilamiz. Azim Hojiyev "leksema" va "so'z"ni, leksema - lug'aviy ma'no anglatuvchi unsur, so'z - leksemaning shakl va mazmun bilan voqelangan ko'rinishi", - ekanligini izohlaydi.

Ko'makchilar tuzilishi va lisoniy mohiyatiga ko'ra sof, vazifadosh va qo'shimchasimon turlardan tashkil topishidan qat'iy nazar, ularning kelib chiqish manbai mustaqil so'zlar ekani barcha manbalarda yakdillik bilan e'tirof etiladi. T. Rustamovning "Sof ko'makchilar" nomli risolasida esa ushbu etimologik asos sof ko'makchilarning kelib chiqish manbalari vazifadosh shakllar singari mustaqil so'zlarga (asosan ism guruhiga mansub so'zlarga) borib taqalishi (bilan: bir+la, -lan fe'l yasovchi qo'shimchalarning birikishidan, uchun: uch+un vosita kelishigining ko'shimchasi birikishidan, kabi: "forma, shakl" ma'nosidagi kab, keb, kib+i egalik ko'shimchasining birikishidan) o'zbek tili tarixining XIII-XX asrlariga oid lug'atlar va badiiy manbalarga tayanilgan holda dalillangan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, ko'makchining leksik ma'nosi o'zi birikib kelayotgan mustaqil ma'noli so'zning leksik ma'nosiga bog'liq. mustaqil va yordamchi so'zlarda leksik va grammatik ma'no mavjudligi, biroq bu ularning mustaqil ma'noli so'zlardagi kabi leksik va grammatik ma'no hosil qiladi degan fikr keltirib chiqarmasligini bilishimiz mumkin. Dunyo tilshunosligida "oraliq uchinchi" turkumlariga oid qarashlar turlicha bo'lib, biz tilning turli xususiyatlarini inobatga olgan holda ko'makchilashish jarayonini matn bilan bog'laymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rustamov T. Sof ko'makchilar.- Toshkent: Fan, 1991. - 124 b. Berdiyev H. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida so'ngko'makchilar: Filol.fan. nomz. ...dissertatsiya. - Samarqand, 1949. - 134 b
2. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap; «O'zbek tili va adabiyoti», 1986. 6-son, Nurmonov A.N. Ko'makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi. «O'zbek tili va adabiyoti», 1986. 6-son, 28-42-betlar
3. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B. R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili.— T.: "Fan va texnologiya", 2009.
4. Xojiyev A. O'zbek tilida morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasashining nazariy masalalari. - T.: "Fan", 2010.
5. Rahimov A. Leksik va semantik derevatsiya muommolari. - T.: "Navro'z". 2011.